

# Infografika: Mahsulotlar tannarxini pasaytirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

// 22.07.2025

<https://uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/infografika-mahsulotlar-tannarxini-pasaytirish-bo-yicha-amalga-oshirilgan-ishlar>



## MAHSULOTLAR TANNARXINI PASAYTIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

2025-yil yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxi 349,1 mlrd so'mga kamayishiga erishildi.

**Xomashyo xarajatlarni qisqartirish – 39,8 mlrd so'm;**

**Yoqilg'i energetika resurslarini tejash – 70,1 mlrd so'm;**

**Texnologik muvofiqlashtirish, boshqaruv va ishlab chiqarishni maqbullashtirish – 66,6 mlrd so'm;**

**Asosiy fondlar samaradorligini oshirish – 53,2 mlrd so'm;**

**Raqamlashtirish, xarid qilish, tashish va boshqa xarajatlarni maqbullashtirish – 119,4 mlrd so'm;**

Korxonalar kesimida:



Kaustik soda ishlab chiqarishda elektrolizyorda 420 dona ion almashtiruvchi membranalarni yangisiga almashtirish hisobiga 2,2 mlrd so'mlik 3,4 mln kVt elektr energiyasi iqtisod qilindi;



"GARVEKS" dasturiy ta'minotini ishga tushirish orqali 1,5 mlrd so'mlik dizel yoqilg'isi iqtisod qilindi;



Karbamid ishlab chiqarish sexida yangi energiya tejamkor kompressor o'rnatilishi hisobiga 5,8 mlrd so'mlik 3,9 mln kVt elektr energiyasi, 783,8 ming m<sup>3</sup> suv va 7,8 ming Gkal bug' iqtisod qilindi;



Kalsinatsiya sexida modernizatsiya ishlarini olib borish natijasida 1,6 mlrd so'mlik kalsinatsiyalangan soda mahsulotining yo'qotilishi oldi olindi;



barbotajli bug'latish uskunasini modernizatsiya qilish hisobiga 3 mlrd so'mlik 3,6 mln kVt elektr energiyasi iqtisod qilindi;



"Tashkura" konidan zavodgacha bo'lgan tashish masofasini kamaytirish orqali 4,6 mlrd so'mlik ortiqcha xarajatlarning oldi olindi.